ABDULHAMID CHO‘LPON MILLIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI TRANSFORMATSIYASI

Umaraliyev Hojiakbar Umidjon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Bahromov Abdulaziz Azizjon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Xudoynazarov Yaxyobek Shokirjon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning hayoti, ijodiy faoliyati, milliy uyg‘onish va milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi sa’y-harakatlari hamda uning adabiy merosining bugungi kundagi transformatsiyasi yoritiladi. Shuningdek, adibning she’riy asarlarida aks etgan milliy ozodlik, ma’rifat va erkinlik g‘oyalari, sovet davridagi siyosiy tazyiqlar hamda qatag‘on siyosatining uning hayoti va ijodiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muammolar, shaxs erkinligi, milliy uyg‘onish va mustamlakachilik muhiti badiiy jihatdan talqin etiladi. Shu bilan birga, adib merosining zamonaviy ta’lim, milliy tarixiy xotira, tarjima va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola Cho‘lpon ijodining bugungi avlod ma’naviyati va milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rnini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulhamid Cho‘lpon, jadidchilik, milliy uyg‘onish, milliy o‘zlik, qatag‘on, “Kecha va kunduz”, milliy meros, transformatsiya, ma’rifat, shaxs erkinligi.*

KIRISH

XX asr boshlarida Sovet hukumati Turkiston hududidagi ziyoli qatlamga nisbatan qonli urush boshladi. Bunda asosan o‘sha vaqtdagi ziyolilar ya’ni o‘lka jadidchiligining namoyondalari nishon markazida bo‘lishdi. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulhamid Cho‘lpon singari yetuk jadidlar ham qatag‘on qurboniga aylandi. Bu vaqtga kelib o‘lka hududidagi yerli tub aholi sovetlar zulmidan aziyat chekib kelmoqda edi. Bu esa, ushbu siyosatga qarshi bir kuchga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Shunday bir murakkab vaziyatda siyosiy maydonda bir nechta ziyolilar birlashib jadidchilik harakatiga asos soldilar. جَدِيد (jadid) - “yangi” degan ma’noni anglatadi. Bu harakatning eng yoshi ulug‘i Mahmudxo‘ja Behbudiy (36 yoshda) eng yoshi esa, Abdulhamid Cho‘lpon (13 yoshda) edi.

Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) butun hayoti davomida Turkiston jadidchiligiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. Jadidchilik harakati davomida Cho‘lpon yangi usul maktablarini tashkil etish, o‘zining asarlari orqali jamiyat ongiga milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash singari ozodlik g‘oyalarini singdirgan edi. Uning bu borada olib borgan ishlari sirasiga yana jadidchilik teatr spektakllarini ham kiritish mumkin. Bu orqali Cho‘lpon nafaqat aholini tafakkurini uyg‘otgan balki o‘zining yozgan asarlarini ham ularga yetkazib bergan.

ASOSIY QISM

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1897-yili Andijon shahri “Qatorterak” mahallasida gazmol sotish bilan shug‘ullanuvchi savdogar oilasida dunyoga kelgan. Cho‘lpon dastlab eski maktabda, so‘ngra Andijon va Toshkentdagi madrasalarda ta’lim olgan. U arab, fors va turk tillarini puxta egallagan.

Cho‘lpon adabiyotga juda erta kirib kelgan. U dastavval “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” taxalluslari bilan ijodiy faoliyatini boshlagan bo‘lsada, ijodining keyingi yillarida o‘zini Cho‘lpon (Tong yulduzi) sifatida ijod qilgan. Jadid nafaqat qalami o‘tkir shoir balki kuchli dramaturg ham edi. U 1914-yildan boshlab “صدای تورکستان” (Sadoi Turkiston), “صدای فرغانه” (Sadoi Farg‘ona) kabi mahalliy

jurnallarda ijodiy materiallari bilan ko‘rinish bera boshladi. Keyingi yillarda shoirning asarlari nafaqat Turkiston hududida balki undan tashqaridagi jurnallarda chop etilib, uning asarlari kengroq ommaga yetib bora boshladi. Cho‘lpon o‘z she’rlarida milliy ozodlik, jamiyat taraqqiyoti va xalqning boshdan o‘tkazayotgan og‘ir shart-sharoitlari kabi masalalarni olib chiqqan. Uning “Uyg‘onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” , “Binafsha” va “Soz” kabi she’rlari shular qatoridandir.

Cho‘lponning “Binafsha” she’ri ramziy mazmuni kuchli asarlar qatoriga kiradi. She’rda binafsha oddiygina gul sifatida emas, balki insonning og‘ir sharoitdagi holatini ifodalovchi ramziy obraz sifatida gavdalantirilib, unga achinish tuyg‘usi bilan murojaat qiladi:

Nechun erta ochilding sen,
Nechun erta so‘lursan tez?
Nega buncha shoshilding sen,
Kelmay turib bahoriy kez?

Yuqorida keltirilgan satrlarda savollar shunchaki tabiat hodisasiga taajjub emas, balki o‘sha vaqtdagi aholining ijtimoiy-siyosiy hayoti va boshdan o‘tkazayotgan qiyinchiliklari ulkan mahorat bilan yoritib berilgan. Qahraton tugamasdan “Bahoriy kez” ya’ni millatning erki va mustaqilligi qo‘lga kiritilmasdan turib erta unib chiqqan binafsha sovet tuzumining siyosiy qarshiligi va davrning nohaqliklariga dosh bera olmaydi. Shoir bu fojia orqali ozodlik yo‘lida erta uyg‘ongan, lekin mustabid tuzum va jamiyat loqaydliklari uchun qurbon bo‘layotgan ziyolilarning ayanchli taqdiriga ishora qiladi.

Cho‘lponning milliy ozodlik, milliy o‘zlikni anglash va o‘sha vaqtdagi siyosiy tuzumga nisbatan tanqidiy ruhda yozilgan asarlari sovet hukumatining e’tiboridan chetda qolmadi. Shu bois 1927-yildan boshlab jadidning ijodiga nisbatan siyosiy hujumlar boshlandi. Naim Karimov Cho‘lpon ijodiga qarshi harakatlarning kuchayishini 1927-yil oktabridagi II qurultoyiga bog‘laydi. Unda Akmal Ikromov

Cho‘lpon ijodini “g‘oyaviy tutruqsiz” deb baholaganidan keyin shoirning adabiy muhitdagi mavqei keskin zaiflashgani ko‘rsatiladi1.

XX asrning 30-yillari boshida uning ijodiga nisbatan siyosiy zug‘um yanada avj oldi. Natijada Cho‘lpon 1932-yilda Moskvaga ketishga majbur bo‘ladi. U yerda adabiy tarjimonlik bilan shug‘ullanib, keyinchalik Toshkentga qaytadi ammo unga qarshi bosimlar kuchaygani sababli uning asarlari matbuotlarda chop etilmay qo‘yiladi2. Siyosiy bosim va kuchli tazyiq Cho‘lponning ijodini to‘xtata olmaydi, lekin uning ijodiy faoliyatini yo‘nalishini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shundan keyin Cho‘lpon tarjima faoliyatiga ko‘proq e’tibor qarata boshlaydi. Naim Karimov ta’kidlashicha Cho‘lpon jahon adabiyoti namoyondalari asarlarini tarjima qiladi, xususan Gogolning “Tergovchi”, Shekspirning “Hamlet”, Pushkinning “Bares Godunov”, Gorkiyning “Ona” asarlari shular jumlasidandir.

Cho‘lponning asarlari orasida eng ko‘p yoritilgan mavzu xalqni uyg‘otish, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari edi. Jumladan, “Kecha va Kunduz” romani ham o‘ziga hos mavqega ega. Ushbu nodir asar qatag‘on siyosati eng avjiga chiqqan pallada ya’ni 1934-yilda yozilgan bo‘lib, dastlab asar ikki kitobdan ya’ni “Kecha” va “Kunduz” qismlardan iborat bo‘lgan, biroq bugungi kungacha uning “Kunduz” qismi topilmagan.

Roman tarixiy jihatdan XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining murakkab ijtimoiy-siyosiy holatini tasvirlaydi. Shu sababli asarni faqat Zebi taqdiri yoki oilaviy-ijtimoiy roman sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy tadqiqotlarda ham roman milliy uyg‘onish, shaxs drammasi, jamiyat inqirozi, mustamlakachilik ruhiyati va ma’rifatparvarlik masalalari bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda3.

Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani nomidayoq asarning asosiy mazmunini anglash uchun muhim bo‘lgan ramziy qarama-qarshilikni yuzaga chiqaradi. “Kecha” va “Kunduz” oddiy vaqt tushunchalari sifatida emas, balki inson, jamiyat va millatning ma’naviy holatini ifodalovchi badiiy timsollar sifatida namoyon

1 N.Karimov. Cho‘lpon: Ma’rifiy roman. – T.: Sharq, 2003. – B. 48
2 N.Karimov. Cho‘lpon: Ma’rifiy roman. – T.: Sharq, 2003. – B. 118
3 D.Boydullayeva. Cho‘lponning kecha va kunduz romanida milliy uyg‘onish, shaxs dramasi va jamiyat inqirozi talqini. Golden Brain. V.3.(20), 2025. – B. 82-87.

bo‘ladi. Romanning birinchi qismi “Kecha” deb nomlangani ham bejiz emas. Romanda tasvirlangan ijtimoiy muhit, insonlarning dunyoqarashi, mavjud tartiblar va shaxs taqdirining jamiyat tomonidan belgilanishi “kecha” tushunchasining mazmunini kengaytirib, uni tarixiy va ma’naviy holat ramziga aylantiradi. Zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida ham “kecha–kunduz” juftligi romanning umumlashtiruvchi jihat sifatida talqin qilinib, uning ijtimoiy-axloqiy kechadan shaxsiy va milliy uyg‘onish tomon harakatni ifodalashi ta’kidlangan4.

“Kecha”ning birinchi ma’nosi jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy qoloqlik bilan bog‘liq. Cho‘lpon roman voqealarini tasvirlar ekan, inson hayotiga ta’sir qilayotgan muammolarni birgina shaxsning xatosi yoki kamchiligi sifatida ko‘rsatmaydi. Aksincha, u kishilar taqdirini belgilayotgan muhitning o‘zini tahlil qiladi. Zebi obrazining hayot yo‘li bunga yaqqol misoldir. U yosh, iste’dodli va tabiatan erkinlikka intiluvchi qiz bo‘lsa-da, uning kelajagi haqida qaror qabul qilish huquqi o‘z qo‘lida emas. Uning taqdiri otasi, oilaviy muhit, ijtimoiy urf-odatlar va mansabdor kishilarning xohishlari bilan belgilanadi. Natijada insonning shaxsiy istagi bilan jamiyat tomonidan unga yuklangan taqdir o‘rtasida keskin ziddiyat yuzaga keladi.

Shu jihatdan “kecha” tushunchasi shaxsning o‘z hayoti ustidan mustaqil qaror qabul qila olmasligi bilan ham bog‘lanadi. Zebi fojiasining ildizi faqat uning atrofidagi ayrim shaxslarning xarakteridan kelib chiqmaydi. Uning fojeasi jamiyatda shakllangan qarashlar, ayolning ijtimoiy mavqei, oiladagi patriarxal munosabatlar va shaxs erkinligining cheklanganligi bilan chambarchas bog‘liq. 2026-yilda e’lon qilingan tadqiqotda ham roman Zebi, Razzoqso‘fi va Qurbonbibi obrazlari orqali ayolning ijtimoiy mavqei, shaxs erkinligi va ijtimoiy bosim o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib berishi qayd etiladi5.

“Kecha”ning ikkinchi muhim qatlami jaholat va ma’rifatsizlikdir. Cho‘lpon jaholatni faqat savodsizlik ma’nosida tushunmaydi. Uning romanida jaholat insonning

4 Z.Ayimbetova. “Cho‘lponning ‘Kecha va kunduz’ romanida motivlar tizimi va ularning badiiy funksiyalari”. Tamaddun nuri jurnali. J. 7. 82(2), 2026 – B. 294–300.
5 D.X.Boydullayeva. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanida milliy uyg‘onish, shaxs dramasi va jamiyat inqirozi talqini // GOLDEN BRAIN. J. 3. (20), 2026. – B. 84–86.

mavjud tartiblarni tabiiy va o‘zgarmas deb qabul qilishi, o‘z huquq va imkoniyatlarini anglamasligi, boshqalarning qaroriga tobe holda yashashi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli romandagi ma’rifat masalasi oddiy bilim olish masalasidan kengroq mazmun kasb etadi. Ma’rifat insonning o‘zligini anglash, jamiyatdagi o‘rnini tushunish va o‘z taqdiriga mas’uliyat bilan qarash imkonini beruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu nuqtada “kecha” va “kunduz” o‘rtasidagi ramziy munosabat yanada ravshanlashadi. Agar “kecha” insonning o‘z holatini anglamagan, mavjud tartiblar ta’sirida yashaydigan holatini bildirsa, “kunduz” uning ongida uyg‘onish boshlanishini anglatadi. Biroq Cho‘lpon bu uyg‘onishni tayyor va yakunlangan hodisa sifatida tasvirlamaydi. Aksincha, roman qahramonlarining ichki ziddiyatlari orqali uyg‘onishning murakkab va qarama-qarshi jarayon ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli “kunduz”ni oddiygina baxt yoki yorug‘ kelajak timsoli sifatida emas, balki inson va jamiyatning ma’rifat sari intilishi sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir.

“Kecha” tushunchasining yana bir muhim jihati siyosiy qaramlik va mustamlakachilik muhiti bilan bog‘liq. Romanda mahalliy jamiyat hayoti Sovet hukmronligi sharoitida tasvirlanadi. Biroq Cho‘lpon mustamlakachilikni faqat tashqi siyosiy hukmronlik shaklida ko‘rsatmaydi. Uning ta’siri iqtisodiy munosabatlarda, mansab tizimida, mahalliy amaldorlarning faoliyatida va xalqning ruhiy holatida ham seziladi. Shu sababli romandagi siyosiy qaramlik bilan ma’naviy qaramlik bir-birini to‘ldirib turadi.

Cho‘lpon merosining bugungi kundagi transformatsiyasi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilar;

Uning asarlaridagi milliy uyg‘onish, erkinlik, ma’rifat va inson qadr-qimmati g‘oyalarining zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar bilan qayta mushtaraklik kasb etishida namoyon bo‘ladi[6]. Transformatsiya bu o‘rinda adib qarashlarini tarixiy sharoitidan uzib talqin qilish emas, balki ular yuzaga kelgan davrni hisobga olgan holda, asarlardagi umuminsoniy mazmunni bugungi kun bilan bog‘lab o‘rganishdir.

[6] G.R.Toshboyeva. O‘zbek adabiyotida Cho‘lpon adabiy merosining o‘rni va ahamiyati // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – 8-jild, 5-son. – B. 994–998.

Cho‘lpon ijodi mustamlakachilik va siyosiy tazyiq sharoitida yaratilgan bo‘lsa-da, unda ko‘tarilgan ma’rifat, adolat, shaxs erkinligi va millat kelajagi masalalari hozir ham ilmiy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Cho‘lpon merosi milliy o‘zlikni anglash jarayonida yangi mazmun kasb etmoqda. Jadid uchun millat ravnaqi faqat siyosiy ozodlik bilangina cheklanmagan. U xalqning bilimli bo‘lishi, dunyoqarashini kengaytirishi, xalqning o‘z tili va madaniyatini qadrlashi bilan ham bog‘liq edi. Bugungi kunda bu qarashlarni tarixiy xotirani asrash, milliy adabiyot namunalarini chuqur o‘rganish va yosh avlodda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘lash mumkin. Shu ma’noda Cho‘lponni o‘rganish o‘tmishni yodga olish bilangina cheklanmay, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy asoslarini anglashga xizmat qiladi. Adibning she’riyati, nasri va dramaturgiyasi milliy madaniyatning turli qatlamlarini o‘zida mujassam etgani sababli, uning merosini birgina asar yoki mavzu doirasida baholash yetarli emas.

“Kecha va kunduz” romanining bugungi talqini shaxs va jamiyat munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Romandagi Zebi taqdiri orqali insonning shaxsiy istaklari, jamiyatdagi urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy bosim o‘rtasidagi murakkab ziddiyat ochiladi7. Zamonaviy o‘quvchi bu obrazni faqat o‘tgan davr ayolining fojiasi sifatida emas, balki inson sha’ni, tanlov huquqi va mas’uliyati haqidagi badiiy savol sifatida ham qabul qilishi mumkin. Bunda tarixiy sharoit bilan bugungi hayot o‘rtasidagi farqlarni saqlash muhim. Romandagi voqealarni hozirgi davrga aynan ko‘chirish emas, balki ularning sabablarini tahlil qilish orqali adib ilgari surgan ijtimoiy muammolarni tushunish lozim. Tadqiqotlarda ham roman obrazlari milliy uyg‘onish, shaxs dramasi va jamiyat inqirozini o‘zaro bog‘liq holda ochib berishi ta’kidlanadi.

Cho‘lpon merosining transformatsiyasi ta’lim jarayonida ham ko‘zga tashlanadi. Adib asarlarini dars va ilmiy mashg‘ulotlarda o‘rganish faqat syujetni bayon qilish

[7] D.X. Boydullayeva. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida milliy uyg‘onish, shaxs dramasi va jamiyat inqirozi talqini // *Golden Brain*. – 2026. – J. 3. (20). – B. 82–87. – Elektron manba: https://zenodo.org/records/18143448 (murojaat sanasi: 04.10.2026).

yoki badiiy san’atlarni aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Matnni yaratilgan davr manbalari bilan qiyoslash, qahramonlarning qarorlarini tahlil qilish, ramz va timsollarning ma’nosini ochish o‘quvchida tarixiy tafakkur hamda tanqidiy o‘qish malakasini rivojlantiradi. Masalan, “kecha” va “kunduz” qarama-qarshiligini jaholat va ma’rifat, tobelik va erkinlik, loqaydlik va uyg‘onish tushunchalari bilan bog‘lab tahlil qilish mumkin. Bunday yondashuv asarni tayyor xulosalar majmui sifatida emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan badiiy manba sifatida ko‘rsatadi.

Cho‘lpon asarlarining tarjima va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi o‘rni ham uning merosini zamonaviylashtirishning muhim yo‘nalishidir. Tarjima orqali adib ijodi boshqa tillarda so‘zlashuvchi kitobxonlarga yetib boradi, qiyosiy tahlil esa uning asarlaridagi milliy xususiyatlar bilan umuminsoniy mavzular o‘rtasidagi munosabatni ochishga yordam beradi. Bunda milliy kolorit, tarixiy atamalar, xalqona iboralar va obrazlarning ma’nosini saqlash muhim masala hisoblanadi. “Kecha va kunduz”dagi ijtimoiy munosabatlar hamda qahramonlar ruhiyatini boshqa madaniyat vakillariga tushuntirish uchun tarjimon va tadqiqotchi asarning tarixiy muhitini ham izohlashi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon milliy merosining bugungi kundagi transformatsiyasi uning asarlarini yangi davr talablariga mos ravishda o‘qish, o‘rganish va keng ommaga yetkazish jarayonidir. Bu jarayon adibning tarixiy shaxs sifatidagi o‘rnini saqlagan holda, uning ma’rifat, milliy o‘zlik, inson erkinligi va ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarini bugungi ta’lim muhiti bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Cho‘lpon merosini chuqur o‘rganish tarixiy xotirani mustahkamlash, badiiy tafakkurni rivojlantirish va jamiyatdagi murakkab masalalarga tanqidiy yondashish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Demak, adib ijodining zamonaviy ahamiyati faqat uning o‘tmishdagi xizmatlarini e’tirof etishda emas, balki asarlaridagi savollarni bugungi avlodning mustaqil mushohadasi uchun ochiq saqlashidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayimbetova Z. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida motivlar tizimi va ularning badiiy funksiyalari // Tamaddun nuri jurnali. J.7. 82(2), 2026. – B. 294–300.
2. Boydullayeva D. X. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida milliy uyg‘onish, shaxs dramasi va jamiyat inqirozi talqini // Golden Brain. – J. 3. – 20-son, 2025. – B. 82–87.www.zenodo.org
3. Karimov N. Cho‘lpon: ma’rifiy roman. – Toshkent: Sharq, 2003. – 464 b.
4. Quronov D. Cho‘lpon poetikasi (shoir ijodi misolida). – Toshkent: Fan, 2004. – 180 b.
5. Ro‘ziboyeva P., Karimov B. Abdulhamid Cho‘lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta’limi masalasi // FarDU ilmiy xabarlar jurnali. – 2022. – 3-son.
6. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. – Toshkent: Xazina, 1994. – 160 b.
7. Toshboyeva G. R. O‘zbek adabiyotida Cho‘lpon adabiy merosining o‘rni va ahamiyati // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – J. 8. – 5-son, 2026. – B. 994–998.